# XALQ DEPUTATLARI BULUNG‘UR TUMAN KENGASHINING
# Q A R O R I

2021 - yil 31 - avgust VI-39-31-7-93-K/21 Bulung’ur tuman hokimligi

## O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-apreldagi “Obod Qishloq” va “Obod mahalla” dasturlarini amalga oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5048-sonli qarori ijrosini ta’minlash hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida 2021-yil 24-mart kuni kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan videoselektor majlisi 16-son bayonining 7-bandi ijrosini ta’minlash yuzasidan tumandagi sektor rahbarlari tomonidan yagona onlayn tizimga ma’lumotlarni kiritilishi yuzasidan qilingan ishlar to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida 2021-yil 24-mart kuni kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan videoselektor majlisi 16-sonli bayonining 7-bandi va “2021-yil 2-apreldagi “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlarini amalga oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5048-sonli qarori ijrosi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-fevraldagi “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-6155-son Farmoni ijrosini, shuningdek, “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlarini amalga oshirishni izchil davom ettirish orqali hududlarning
yo‘l-transport infratuzilmasi, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari hamda ijtimoiy soha obyektlarini rivojlantirish va shu asosda aholining farovonligi hamda turmush darajasini yanada yuksaltirish maqsadida Bulung‘ur tumanida bajarilayotgan ishlar va bu borada yagona onlayn tizimiga ma’lumotlarni kiritilishi yuzasidan sektor rahbarlarining hisobotlari tinglanib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 24-moddasiga asosan xalq deputatlari tuman

Kengashining XXXIX sessiyasi

**QAROR QILADI:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-apreldagi “Obod Qishloq” va “Obod mahalla” dasturlarini amalga oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5048-sonli qarori ijrosini ta’minlash hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida 2021-yil 24-mart kuni kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan videoselektor majlisi 16-sonli bayonining 7-bandi ijrosini ta’minlash yuzasidan tumandagi sektor rahbarlari tomonidan yagona onlayn tizimga ma’lumotlarni kiritilishi yuzasidan qilingan ishlar to‘g‘risidagi sektor rahbarlarining hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tumandagi sektor rahbarlari, tuman hokimining o‘rinbosarlari (D.Xabibullayev, N.Sanaqulov va A.Xazratqulov), mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda ushbu dasturni ijrosini ta’minlashda belgilangan muddatlarda va sifatli amalga oshirilishi yuzasidan tegishli nazorat o‘rnatilishini hamda amalga oshirilgan ishlari yuzasidan har oyning 20-sanasiga qadar Xalq deputatlari tuman Kengashiga axborot kiritib borishi belgilab qo‘yilsin.

3. Tuman hokimligi axborot xizmati (A.Jabborov), “Bulung‘ur hayoti” gazetasi (G‘.O‘rolov)lar “Obod qishloq” dasturlari bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar hamda mavjud muammolarni doimiy ravishda ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining sanoat, trasport, qurilish kommunal xo‘jaligi masalalari va aholiga hizmat ko‘rsatish bo‘yicha doimiy komissiyasi (X.Bozorov) hamda tuman hokimining o‘rinbosarlari (D.Xabibullayev, N.Sanaqulov va A.Xazratqulov) zimmalariga yuklatilsin.

**Кенгаш раиси** **B.Baxramov**